



ARTICLE INFO

Received: 1st November 2022
Accepted: 09th November 2022
Online: 12th November 2022

KEY WORDS

Korrupsiya, manfaatlar
to'qnashuvi, qarindoshchilik
(quda-andachilik), nepotizm,
guruhbozlik, kronizm,
mahalliychilik, urug'-
aymoqchilik, oshna-
og'aynigarchilik,
rahnamochilik, lobbizm

Yer yuzida davlat va jamiyat paydo bo'lganidan buyon odamzod poraxo'rlik va korrupsiyani taraqqiyot va farovonlikning kushandasi, jamiyatda adolat, tenglik, sog'lom raqobat va halollik tamoyillari ustun bo'lishiga to'sqinlik qiladigan ijtimoiy illatlardan biri, deb baholab kelgan va unga qarshi kurashib yashagan. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, taraqqiyotga to'siq bo'layotgan eng xavfli illatlardan biri hech shubhasiz korrupsiyadir. Bugungi kunda ko'pchilik odamlar korrupsiyani pora olish, pora berish va bora olish va berishda vositachilik qilish deb tushunishadi. Aslida esa ulardan ham xavfliroq bo'lgan shaxslarning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarilishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ta'sir ko'ratishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning,

DAVLAT BOSHQARUVIDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI

QAYUMOVA E'TIBOR XAYDAR QIZI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI YURIDIK

FAKULTETI 2-BOSQICH TALABASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7315393>

ABSTRACT

Mazkur maqolada davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishning huquqiy asoslariga doir masalalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada manfaatlar to'qnashuvini oldini olish borasidagi milliy qonunchilik ham tahlil etiladi.

tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari yo'lida harakatlar, xodimlarni pora va boshqa haq evaziga og'dirib olish harakatlariga ko'p e'tibor qaratishmaydilar. Bular manfaatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi omillar hisoblanadi. Buning oqibatida jamiyatga va davlatga, shuningdek davlatlar orasidagi munosabatlarga katta shikast yetkazmoqda. Xalqaro va milliy hujjatlarda asosan "korrupsiya" tushunchasiga keng tariflar berilgan bo'lib, "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasiga yetaricha tarif berilmagan, faqatgina moddalar ichida keltirilib o'tilgan. Hozirda "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasi va uning mazmun mohiyati bo'yicha ilmiy adabiyotlar, xalqaro va milliy yuridik adabiyotlarda aniq yondashuvlarni yetarlicha topish qiyin. Bu tushuncha bo'yicha asosan, xalqaro konvensiyalarda,



davlatlar o'rtasidagi o'zaro shartnomalar, shuningdek, ular asosida shakllangan milliy qonunchiligimizda ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktyabr kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi"¹ qabul qilingan bo'lib, uning 2-bobida davlatlarga nisbatan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri ommaviy mansabdor shaxslar manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirilishi mumkin bo'lgan xizmatlardan tashqari faoliyat, mashg'ulotlar, investitsiyalar, aktivlar hamda muhim tuxfa yoki naflar to'g'risida deklaratsiyalarni taqdim etishga majbur qilish kerakligi keltirilib o'tilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan hujjatlar ham bor, ular "Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida"²gi Namunaviy qonuni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"³gi Namunaviy qonunlar qabul qilingan bo'lib, qonunlarda aynan manfaatlar to'qnashuvi tushunchasiga e'tibor qaratmagan bo'lsada, unga bog'liq munosabatlarni, davlatlar bu borada tegishli yondashishlari keltirilib o'tilgan. Bundan tashqari yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yich qonun va qarorlar qabul qilingan bo'lib, ular tarkibida manfaatlar to'qnashuvi nima ekanligi, qanday holatda vujudga kelishi, uning oldini olish chora-tadbirlari, qonuniy javobgarlikka tortish jarayoni va boshqa holatlar keltirilib o'tilgan. Jumladan, 2017 yil 3 yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"⁴gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. Ushbu Qonunning 3-moddasida manfaatlar to'qnashuviga ta'rif berilgan bo'lib, unga

asosan, manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatdir", deya keltirilib o'tilgan. Boshqa bir qonunda esa, manfaatlar to'qnashuvi⁵ – mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi, uning xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat, deya ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"⁶gi Qonunning 14-moddasida manfaatlar to'qnashuvi borasida shunday tarif berilgan, ya'ni manfaatlar to'qnashuvi bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda uning shaxsiy manfaatdorligi bilan davlat xaridlari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatdir, shuningdek affillanganlikning mavjud bo'lishi. "Manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasi borasida yana boshqa qonun, qarorlar va yondashuvlar bo'lib, ularning



mazmun-mohiyatida ham ma'nolar yotadi. Endi manfaatlar to'qnashuvining turlariga e'tibor qaratsak. Manfaatlar to'qnashuvi turli xil ko'rinishlarda bo'lib, ularning asosiy ko'rinishlari - qarindoshchilik (quad-andachilik), nepotizm, guruhbozlik, kronizm, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oshna-og'aynigarchilik, rahnamochilik, lobbizm (idoraviy manfaatdorlik) va boshqalar kiradi. Bu tushunchalarning ba'zilariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, lobbizm- norasmiy shaxslarning o'zaro uchrashib, rasmiy qarorlar ustunlik qabul qilishidagi siyosiy ta'sirning o'ziga xos turi. Nepotizm- qarindoshlarga yoki do'stlarga kasbiy ko'nikma va qobiliyatlaridan qat'i nazar (masalan, ishga qabul qilishda) imtiyozlar berishdan iborat bo'lgan favoritizm turi. Kronizm-lavozimlarni tanish-bilishchilik asosida do'stlarga berishdir, rahnamochilik esa himoya ostidagi ayrim xodimlarni yaqin olish va qo'llab-quvvatlashdir. Bu kabi manfaatlar to'qnashuvi turli xil ko'rinishlari davlat boshqaruv tizimiga juda katta zarar yetkazibgina qolmasdan, o'sha jamiyatni parchalab yuborishga olish kelishi shubhasizdi. Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish borasida xalqaro va milliy miqiyosda yuridik hujjatlar qabul qilingan bo'lib, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasini amalga oshirish bo'yicha texnik qo'llanmada quyidagilar ta'kidlanadi: "Umumiy prinspga ko'ra, davlat organlarida shunday sharoit yaratish kerakki, unga xizmatlar ko'rsatish jarayoni oshkora va shaffofligi ta'minlangan bo'lishi toki shaxsiy va o'zgarlar manfaatlariga asoslangan sovg'a va mehmondo'stlik munosabatlari rasmiy harakterlar va qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsata olmasligi zarur", deya ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining "Davlat boshqaruv organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaror talablarida shunday deyiladi: Davlat xizmatchilari o'z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsplar asosida amalga oshirishlari kerak ya'ni, qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoyilik, davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik, adolatlik, halollik va xolislik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik. Qarorda yana shuni ko'rishimiz mumkinki, "Rahbar kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish holatlarga yo'l qo'ymasligi kerak. U guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm ko'rinishlarining, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini olish lozim". "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasi ham davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir choratadbirlar masalalarga qaratilgan. Ulardan biri davlat organlari xodimlari manfaatlarining to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash kerakligi ko'rsatib o'tilgan. Qonuning 21-moddasi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar masalasiga qaratilgan. Unga ko'ra: "Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan



taqdirda, davlat organlarining xodimlari o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rish shart. Davlat organlarining maxsus bo'linmalari yoki o'dob komissiyalari manfaatlar to'qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi. Davlat organlarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi". Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi o'zining tizimli nizomini ishlab chiqqan bo'lib, unda quyidagilar nazarda tutilgan: mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish va mehnat organlari manfaatlarini ifodalash doirasida vijdonlilik va halollik tamoyillariga amal qilishi, shaxsiy manfaatlarini hisobga olgan holda o'zlarining xizmat mavqeidan va mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarning mol-mulkidan foydalanmaslik va manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan saqlanishlari lozimligi qayt etilgan. Bundan tashqari mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimlarining o'zlarining xizmat majburiyatlarini lozim darajada va xolis bajarishlariga, jumladan, xolis qaror qabul qilishga hamda mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarning huquqlari, qonuniy manfaatlari, mol-mulki va nufuziga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan vaziyatda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi

aytilgan. Shuningdek, vazirlik tizimining xodimlari ishga qabul qilinishida, boshqa lavozimga o'tkazilishida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligi haqidagi ma'lumotlarni har yili va tegishli vaziyatlar va holatlar yuzaga kelishiga qarab oshkor qilishga majburlar. Mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va uni hal qilish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinishi haqida keltirilib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda aytiladiki, davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas. Yuqorida nazarda to'tilgan shaxslar: xarid qilish tartib-taomillarni amalga oshirishda boshqa xarid qilish tartib-taomillari sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan hamda ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarni cheklaydigan har qanday manfaatlar to'qnashuvi ko'rinishlarining oldini olishi shart; har qanday ehtimol tutilgan, taxmin qilinayotgan yoki mavjud manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotning oshkor qilinishini kafolatlashi kerak. Mavjud bo'lgan yoki taxmin qilinayotgan



manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar topgan hamda yuqorida qayd etilgan shaxslar bu haqda bevosita rahbarini hamda davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organi xabardor etishi shart. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi axborotlarni olgan rahbar uning oldini olish yoki uni bartaraf etish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishi va davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organi ko'rilgan choralar to'g'risida xabardor qilishi shart. Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi axborotni olgach, ushbu Qonunga muvofiq davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga tegishli axborotni kiritishi shart. Manfaatlar to'qnashuviga doir masalalar yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, AQSh Kongressi 1978 yilda "Hukumatdagi axloq to'g'risida"gi Qonun qabul qildi. Bu Qonunning vazifasi "davlat amaldorlari va muassasalari halolligini saqlash va bunga imkoniyat yaratish"dan iborat edi. "Hukumatdagi axloq to'g'risida"gi Qonun kuchga kirganidan so'ng, AQSh sudlariga Qonunning o'z daromadlari haqida deklaratsiya taqdim etish haqidagi talablari davlat xizmatchilarining shaxsiy hayotiga jamiyat va davlatning g'ayrikonstitutsiyaviy aralashishidan boshqa narsa emas degan mazmunda shikoyatlar tusha boshladi. Biroq, AQSh Oliy sudi mazkur Qonunning Konstitutsiyaga mosligini tasdiqladi. Lekin, shunga qaramay, "Hukumatdagi axloq to'g'risida"gi Qonundan ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Shu narsa diqqatga sazovorki, AQSh qonunlarida nafaqat davlat xizmatchisi o'z vazifasini bajarishi chog'ida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvi, balki davlat hokimiyati organlarida o'z xizmatini to'xtatgan shaxs

bilan shunday holatning ro'y berishi ham nazarda tutilgan. AQSh qonunchiligi davlat xizmatchisining qo'shimcha (asosiy vazifa uchun ish haqidan tashqari) daromad olish huquqini ham ancha cheklagan. Bunday daromad miqdori asosiy ish haqining 15% dan oshmasligi lozim. Bu cheklash Senat a'zolaridan tashqari, hokimiyat uchala tarmog'ining barcha xizmatchilariga nisbatan tatbiq etiladi. AQSh federal qonunchiligida davlat hokimiyati organlarini tark etgan sobiq davlat xizmatchilarining ish faoliyatini cheklaydigan normalar ham nazarda tutilgan. Masalan, davlat xizmatchisi xizmatni o'tash davrida muayyan muammolarni hal qilishda hukumat mansabdor shaxsi sifatida shaxsan va katta vakolatlar bilan ishtirok etgan bo'lsa, u iste'foga chiqqanidan keyin ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan shunga o'xshash muammolarni hal qilishda birovning manfaatlarini rasman va har qanday shaklda ifoda etishga haqli emas. Sobiq davlat xizmatchisi iste'foga chiqqanidan keyin ikki yil mobaynida mazkur davlat xizmatchisi ijro etuvchi hokimiyat organida xizmat qilish davrining oxirgi bir yili davomida uning rasmiy vakolatlari qatoriga kirgan muayyan muammolarni ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan hal qilishda vakillik faoliyatini amalga oshirishi mumkin emas. Yuqori martabali davlat xizmatchisi iste'foga chiqqanidan keyin bir yil davomida o'zi xizmat qilgan idora qarshisida har qanday masala yuzasidan birovning manfaatlarini ifoda etishi mumkin emas. Ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun qonun davlat xizmatchilariga muayyan rasmiy qarorlar qabul qilinishi yoki choralar ko'rilishidan



manfaatdor bo'lgan shaxslardan "biron-bir qimmatga ega bo'lgan narsalar" qabul qilishni taqiqlaydi. Biroq, qonun axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat olib borayotgan idoralarga "bu qoidalaridan oqilona istisnolar qilish"ga ruxsat beradi. Chet davlatlardan sovg'alar olish Konstitutsiyaga muvofiq qat'iyan man etilgan bo'lsa-da, amaldagi huquqiy normalarda bu qoidani istisno etadigan holatlar nazarda tutilgan. Chet davlatlarning vakillaridan sovg'a va mukofotlar olish shartlarini tartibga soluvchi qoidalar belgilangan. Davlat xizmatchisi chet davlat vakilidan sovg'a qabul qilishga haqlidir, basharti bu sovg'a suvenir tariqasida yoki ehtirom yuzasidan taklif qilingan va "minimal qiymat"dan ortiq bo'lmasa. Davlat xizmatchisi sovg'a qabul qilishga haqli, basharti: mazkur sovg'a AQShning fan va tibbiyot sohasidagi aloqalari rivojlanishiga ko'maklashsa; sovg'ani qabul qilishdan bosh tortish uni tortiq qilgan shaxsni xafa qilishi va bu AQShning xalqaro munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa. Kanadaning jinoyat qonunchiligiga muvofiq, "mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish", "hukumatni aldash", "mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan ishonchni suiiste'mol qilish" mansabdorlik jinoyatlari hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda 1985 yil Kanadada davlat xizmatchilarining xizmat vazifalari va shaxsiy manfaatlari o'rtasida to'qnashuv yuz bergan holda ular amal qilishi shart bo'lgan xulq-atvor qoidalarini o'zida jamlagan Kodeks11 qabul qilindi. Qonun chiqaruvchining fikriga ko'ra, mazkur qoidalarining maqsadi – "davlat apparatiga va davlat xizmatchilarining halolligiga jamiyatning ishonchini oshirish"dan iborat. Bundan tashqari, qoidalar yuqorida zikr

etilgan jinoyatlarning oldini olishga, davlat xizmatida va uni tark etgandan so'ng "manfaatlar to'qnashuvi" ro'y bergan hollarda barcha davlat xizmatchilari xulq-atvorining aniq qoidalarini belgilashga, "bunday holatlar ro'y berish ehtimolini mumkin qadar kamaytirish va ular ro'y bergan holda, ularni jamiyat manfaatlarida hal qilish"ga qaratilgan. Shunday qilib, AQSh va Kanadaning davlat xizmatini o'tash masalalarini tartibga soluvchi qonunchiligi davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuviga yo'l o'ymaydigan, davlat resurslaridan lozim darajada foydalanishni ta'minlaydigan, xodimlar o'rtasida professionalizm va halollikning eng yuksak darajasiga erishishni talab qiladigan ma'muriy kodekslar va xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Bizning fikrimizcha, AQSh va Kanadaning davlat xizmati to'g'risidagi qonunchiligida bir qancha normalar borki, ulardan O'zbekistonda davlat xizmatini isloh qilish jarayonida foydalanish hamda davlat xizmatchisi manfaatlarining to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan me'yorlar, shu jumladan, bir yo'la bir necha lavozimlarda ishlash chegaralari va bunday hollarda ushbu cheklovlariga rioya etilishi, ma'muriy hujjatlar chiqarish, nazorat, surishtiruv yoki jazolash vazifalarini amalga oshirish hamda shartnomalar tuzishga doir cheklovlar va taqiqlar, har qanday to'lov olishga doir taqiq hamda sovg'alar va xayr-ehsonlarni olish bo'yicha cheklovlar, reklama qilish va ma'lumotlardan foydalanishga doir cheklovlar va taqiqlarga doir majburiyatlari haqidagi qoidalarini kelgusida qabul qilinadigan normativ huquqiy hujjatlarda o'z aksini topsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Koreya Respublikasida 1981 yildagi "Davlat xizmati etikasi to'g'risidagi" 3520-sonli



Qonuniga asosan 1993-yildan boshlab davlat xizmatchilari orasida korrupsiya va mafaatlarni to'qnashuviga qarshi kurashda, ularning daromad, xarajati va mulklarini nazorat qilish mexanizimi hisoblanuvchi aktivlar deklaratsiyasi amaliyotga tadbiriq etildi. Ushbu qonunning 4-moddasiga asosan, barcha yuqori darajadagi mansabdor shaxslar ularning oila a'zolari moddiy va nomoddiy mulklari to'g'risidagi ma'lumotlarini hamda tashkilotlardagi ulushlarni yoki aloqalarinigina ma'lum qilishlari kerak. Ma'lumotlarni ko'rsatish belgilangan ko'rsatgichdan ortgan qiymatlarini deklaratsiyada ko'rsatishi lozim. Milliy qonunchiligimizda manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha jazo choralari ko'rilgan bo'lib, ulardan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 15-moddasiga binoan: "Mansabdor shaxslar boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash, tabiiy muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga va bajarilishini ta'minlash o'z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaganlik bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim". Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida ham tegishli javobgarlik keltirilib o'tilgan. Yuqorida keltirilib o'tilgan xorijiy davlatlar tajribasi va milliy tajribalarni o'rgangan holatda o'zimizning ham taklif va mulahazalarimizni keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Jumladan: Birinchidan, BMTning 2003-yildagi "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida" korrupsiyaning subyekti faqatgina davlat

hokimiyati vakili bo'lishi ta'kidlangan bo'lsa, milliy qonunchilik normalarida u ko'rsatilmagan. Ikkinchidan: Manfaatlar to'qnashuvi asosan yirik biznes vakillari o'rta bo'ladi, ya'ni yirik biznes vakillari o'rta va past darajadagi mansabdor shaxslar bilan aloqalar o'rnatishdan ko'ra yuqori darajadagi mansabdor shaxslar bilan aloqalar o'rnatishga intiladilar. Shu sababli, ushbu bo'g'inda manfaatlar to'qnashuvi yuqori darajada hisoblanadi. Mana shunday holatga yuzaga keltirmaslik uchun mas'ul shaxslar maxsus nazorat tarkibini, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kerak. Uchinchidan, "manfaatlar to'qnashuvi" atamasi bo'yicha xalqaro hujjatlarda yagona tarif berilmagan bo'lib, faqatgina korrupsiyaga qarshi kurashi bo'yicha yuridik hujjatlarda uning nimaligi va qanday holatlarda yuzaga kelishi, turlari keltirilgan. Lekin hozirda manfaatlar to'qnashuvi har xil turlari vujudga kelgan. Bu esa davlatlar o'rtasida yagona tushuncha bo'yicha ziddiyat kelishi mumkin. Shu sabablardan yagona manfaatlar to'qnashuviga oid yuridik hujjat ishlab chiqish kerak. To'rtinchidan, hozirgacha manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha alohida qonun ishlab chiqilmagan, faqatgina uning loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Qonunni qabul qilib uning ijrosini taminlashni tezlashtirish kerak. Xulosa qilib aytganda, manfaatlar to'qnashuvi borasida keng ko'lamli ishlar olib borish kerak bo'lib, manfaatlar to'qnashuvi pora berish, pora olish va pora olish va berishda vositachilik qilishga qaraganda xavfliroq hisoblanadi.



References:

DISKRYESION HOKIMIYAT (frantsuzcha discretionnaire - shaxsiy ixtiyorga bog'liq) - organ yoki mansabdor shaxsga qonun doirasida o': ixtiyoricha faoliyat ko'rsatish vakolatini berish. Mas. parlamentar respublika davlat boshlig'i odatiy shart-sharoitlarda bosh vazir yoki tegishli vazir imzosisiz normativ hujjatlar chiqarish huquqiga ega emas, favqulodda holatlarda esa u bunday hujjatlarni d.h. ishtirokisiz chiqarishi mumkin. D.h.dan ayniqsa ma'muriy organlar va sudlar tez te: foydalanib turadi, bu amaliyotda shaxsning daxlsizligi, sudda aybi aniqlanmaguncha aybdor hisoblanmaslik kabi demokratik printsiplarni inkor qilishni anglatadi, belgilangan tartibning buzilishiga olib keladi.

3 <http://www.gosbook.ru/node/81444> Rumyantseva Ye. Ye. Kakov v sovokupnosti i po yego chastyam uerb of korruptsii- kto predstavit obestvu samuyu vernuyu metodiku yego rascheta?//Ekspertnaya set po voprosam gosudarstvennogo upravleniya «Gosbuk»

4 Bardhan P. Corruption and development // Journal of Economic Literature. 1997. - Vol. 25. P. 1320. [1] (angl.) Tanzi, V. Corruption, Governmental Activities and Markets // IMF Working Paper 94/99, International Monetary Fund, Washington, DC.-1994.

5 The Anti-Corruption Plain Language Guide

6 Chinhamo O., Shumba G Institutional working definition of corruption // ACT Southern Africa Working Paper. 2007. No.

7 Federalnoty zakon Rossiyskoy Federatsii ot 25 dekabrya 2008 g. N 273-FZ O protivodeystvii korruptsii»

8 Xrestomatiya gosudarstva i prava zarubejnux stran. Drevnost i Srednie veka/sost. V. A. Tomsinov.-M.: Zertsalo. 1999; 2004.-S. 56.

9 Bibliya. Vetxiy Zavet.- M., 1994.-S. 352, 10 Tablisa IX. 3. Avl. Gelly / Zakonu XII tablits. Xrestomatiya po istorii gosudarstva i prava zarubejnax stran / pod red. V. A. Tomsinova.-M.: Zertsalo, 1999. S. 120. 11 Makiavelli N. Izbrannoe.- M., 1989.-S. 78-79, 12 Bardhan P. Corruption and development: a review of issues.-In: Political corruption: concepts and contexts/ Ed. Heidenheimer A. J., Johnston M. 3rd ed. New Brunswick, NJ: Transaction, 2002. - ISBN 978-0-7658-0761-8-P. 331. 13 Glaeser E. L., Goldin C. Corruption and reform: an introduction (angl.) // NBER Working Paper 10775. 2004.